



PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING AHAMIYATI

Quchqorova Ruhshona Sirojiddin qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1- kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llashda ta'lim metodlarini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, o'qituvchilarning axborot texnologiya asosida o'quvchilar bilmini nazorat qilish, pedagog qanday holada va qanday ishinchli manbalar asosida ma'lumotlar to'play olish qobiliyatini, o'qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish malakasini shakillantirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahorat, zamonaviy axborot texnologiyalar, immitatsiya, gipermatin, multimedia, ma'lumotlar bazasi.

Annotation: *In this article, the improvement of educational methods in the application of information technologies in the educational process, the rational use of computer technologies in the educational process, the control of students' knowledge by teachers based on information technology, what is the situation of the pedagogue and what are the effective sources the ability to collect data, the ability of teachers to use the possibilities of modern information technology are discussed.*

Key words: *Pedagogical skills, modern information technologies, imitation, hypermath, multimedia, database.*

KIRISH

Pedagogika tarixiga nazar tashlasak bu orqali dastlabki madrasalar, oliy o'quv yurtlari, universitetlarning ta'lim jarayoni va o'qitish sifati, o'quv rejalari o'tgan



zamon davriga mos bo'lgan. Tarbiyaning ilk bosqichlari ibtidoiy jamiyat davridayoq paydo bo'lgan.

Uzoq va boy tarixiga ega Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim tarbiyaga boy merosini yaratib, rivojlantirib, kelajak avlodni ilimparvarlik, insinparvarlik, ochiq ko'ngillilik va umuminsoniy fazilarlar ruhida tarbiyalamoqda. Shu bilan birga hozirga zamon asrida texnika va texnologiya ta'limning bir bo'lagi. Zamonlar almashinuvi ta'limga o'z ta'sirini ko'rsatadi va ta'lim zamonga moslashadi.

Hozirgi ta'lim muassasasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish va ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni eng muhim ko'rsatgichlaridan biri hozir sanab o'tiladigan qarorlar. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va o'qituvchilarning ko'nikma va malakalarini oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi 2005-yil 28-sentabr PQ-191sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Kampyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida "gi 2002-yil 6-iyundagi 200-sonli, "O'qituvchi kadrlarni qayta tayyotlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2006-yil 16-fevral 25-sonli shu kabi qarorlarning qabul qilinishi davlatning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir.

Insonlarning o'qish jarayoni faqatgina maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari bilan cheklanmaydi. Inson umri davomida ta'lim olishi zarur ya'ni ta'lim uzluksizdir. Zero zamonaviy axborot texnologiyalariga bo'lgan extiyoj yanada rivojlanishi shubhasiz. Jamiyatning har qanay a'zosi kundalik faoliyatida kun-u tun uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Kunsain ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatda intellektual salohiyatga boy insonlarning yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Shunday



ekan o'qituvchi ham o'z kasbiy mahoratini va pedagogik mahoratini axborot texnologiyalari asosida bilimlarini oshirib borishi davr talabi ekanligi sir mas.

XXI asr- axborot texnologiya asrida ta'limni axborotlashtirish har bir ta'lim muassasasidan:

- o'qitish va tehsil olish jarayinining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi bo'linmalarining;
- ta'lim muassasasi boshqaruv muhitining axborotlashtirishini talab qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ta'limning texnologik asosini zamon talablari darajasiga olib chiqish bilan bir qatorda murakkab jarayonni yengillashtirish. Dars jarayonida zamonaviy texnik vositalardan foydalanib tashkil etish uchun maxsus ko'nikma va malakani shakillantirish lozim. O'quvchining mustaqil izlanish faoliyati takomillashadi va dars jarayonidagi muhit o'qituvchidan o'quvchiga ko'chadi. Zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o'qituvchi pedagogik faoliyatida har bir o'quvchi bilan ishlash, turli xil testlar, fanga doir rivojlantiruvchi mashqlarni qo'llash mumkin.

U.SH.Begimqulov zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida erishilayotgan yutuqlarni inobatga olib kompyuter texnologiyasini quyidagi jihatlarda ta'lim muassasalari pedagogic faoliyati jarayonlarida qo'llash samarali bo'lishini ta'kidlaydi. Pedagogik faoliyada axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jadvallarini yurishda, o'quvchilarning ma'lumotlarini kiritish va shakillantirishda, o'quvchilar bilan masofaviy ma'lumotlar almashishni osonlashtirishga ko'mak beradi va undan foydalanish ko'nikmasini shakillantiradi. Tashkil etilgan muhim jarayonlarni interfaol telekonfirensiya , vertula majlislar, muhim axbotorlarni o'qituvchi kamyuteri orqali tez tashkil etishlari mumkin. Ta'lim boshqarmalariga yoxud boshqa mutasaddi tashkilotlarga elektron pochta orqali ma'lumotlarni jo'natish va bog'lanish imkoniyatiniyaratadi. Uzoq masofaga

ega chet el muassasalari bilan ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish zamonaviy axborot texnologiyalar bilan yanada oson.

Hozirgi zamon ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirish, ta'limda bunday texnologiyalarni qo'llash eng muhim jarayonlardan biri ekanligi pedagog olimlar tomonidan tasdiqlangan. Jumladan, U.SH.Begimqulov ta'limda kompyuter axborot muhitini zamon talabiga mos keladigan darajadagi axborot bazasini yaratish kerakligini, gipermatn va multimedia, kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni, zarur axborotlarni kompyuter yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qiladigan ma'lumotlar bazasini yaratishni tashkil etadi. Shu ba'sdan o'qituvchi kadrlarning zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadida shu bilan birga o'qituvchilar pedagogik mahoratini zamon talabi asosida takomillashtirishga mo'ljallangan masofaviy malaka oshirish kurslarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqadi.

Kompyuter texnologiyalari yordamida turli xildagi axborotlarni, o'quv materiallarini keng doirada izlash va boy imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. Bir ma'lumotni kiritamiz va qisqa vaqtichida ko'pgina ma'lumotlarni turli yo'nalishda taqdim etadi. Foydali texnologiyalar orqali ta'limda sezilarli ijobiy yutuqlarga erishib, fan doirasida mana shunday texnologiyalarni sinovdan o'tkazsak ta'lim rivojida muhim ro'l o'ynaydi. Kompyuterning yana bir xususiyati, u ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, o'quv materiallarini yanada ushinishga, takrorlashda, jamlashda, ma'lum fan bo'yicha erishgan bilim, malaka, va ko'nikmalarni tekshirishda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi pedagog kompyuterning o'quvchi uchun turli mashg'ulotlarni, xususan o'qituvchilik, ishchi qurol, ta'lim obyekti, o'zaro muloqot kabi funksiyalarni qanday qilish kerak ekanligini bilishi kerak. Bunda o'qituvchining vazifasi dars mobaynida o'quvchilarni kompyuterdan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat.



Kompyuterning o'qituvchilik vazifasini bajarishi quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi:

- o'quv axborotining manbai (o'qituvchini yoki darslikni qisman, ba'zan to'la o'rmini bosuvchi sifatida);
- ko'rsatmali qo'llanmalar (multimedia-telekommunikatsiya imkoniyati bo'lgan yangi sifat darajasida);
- individual axborot yaratilganligi;
- o'quvchi bilimi, ko'nikma va malakasi tashxisi va nazorati muhiti.

Ishchi qurol sifatida kompyuter quyidagi vazifalarni bajaradi:

- matnlarni saqlash va tayyorlash muhiti;
- matnlar muharriri;
- grafiklar quruvchi va ularning muharriri;
- keng imkoniyatli hisobotlar mashinasi (olingan natijalarni turli ko'rinishda ifoda etuvchi);
- modellashtirish vositasi.

Kompyuterning yuqorida keltirilgan ta'lim obyekti sifatidagi vositachilik vazifasi, jumladan bular:

- dasturlashtirish (vazifali jarayonlar bo'yicha kompyuter yordamida o'qitish);
- dasturiy mahsulotlarni yaratish;
- turli axborot muhitidan foydalanish.

Kompyuter va internet bilan birga keng jamoa bilan bog'lanish va uning natijasi sifatida o'zaro muloqotlanuvchi jamoa muhiti yaratiladi. Kompyuter texnologiyalari asosida o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini oshirish uchun mustaqil faoliyatid quyida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishi lozim:

1. O'quv mashg'ulotini bir butun jamoa va bir butun fan yani o'quv jarayonining grafigi, tashqi tasgxis, joriy, oraliq va yakuniy nazorat sifatida tashkil etish.



2. O'quv jarayonida faollashtirish va rag'batlantirish, ish jarayonini taqsimlash, ko'rsatmalar, guruh ichida boshqarish va boshqalar.

3. O'quvchilarning har birini kuzatish, ularga yotdam ko'rsatish, har biri bilan o'zaro fikr almashib muloqot olib borish.

Ma'lumotlar muhitini tashkil etuvchi (shaxsiy kompyuter, o'quv va ko'rgazmali qurollarning har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o'quv – metodik ko'rsatmalar, qo'llanmalar va boshqalar) ma'lum o'quv jarayonining mazmuni bilan bog'liq asosda tayyorlanadi.

Ta'limni yanada kengroq yoyishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligining jadallashishini oshiradi. Bunda, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning eng sara ilmiy, metodik adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Har qanday holatda turli mavzularda videokonferensiyalarni, o'qituvchilarning o'zaro seminar va treninglarini tashkil etish va amalga oshitishga erishiladi.

Foydalanuvchi adabiyotlar:

1. Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Va O'qituvchilar Ta'lim Vazirligi.
2. Abdullayev B.S., Xoliqov A.A., Sodiqov H.M., Primov Sh.Q., Zarmasov Sh.R. Umumiy Pedagogika pedagogik mahorat – 2021. 216-228.
3. Abdullayev B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova S.V., Sheranova M.B. Umumiy Pedagogika pedagogika tarixi.
4. Begimqulov U.S.H. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyot. // Ped. Fanlari dokt. ilmiy dar. Uchun diss.- T.: 2007. 305 b.
5. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). Yangi O'zbekiston Orifa Ayollari Va G'arb Ayollarining Jamiyatdagi Mavqeyi Va Ularning Huquqlari. In International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).



6. Nurillaev, J. (2024, April). The Role of Cluster Education and Science in The Stable Development of Society. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 4, pp. 21-23).
7. Yarashevich, P. N. J. (2023). Factors for Choosing a Marketing Strategy in Tourism Development.
8. Bekzodovna, J. M., & Abdullayevna, R. N. Organization Of Modern Educational Processes In The Education System.
9. Jumayeva, M. B., & Usmanovna, S. M. (2022). Practical Methods of Culture-Based Language Teaching in English Classes. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 612-615.
10. Нуриллаев, Р., & Нуриллаев, Ш. (2023). Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках.
11. Xolmanova, Z., & Shamsiyeva, M. Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati. O 'zbekiston, 6.
12. Нуриллаев, Ж. Я., Нуриллаев, Х. Ж., Бердимуродова, Ф. П., & Мухамадиев, Н. К. (2023). Оценка Лечебных И Метафилактических Мероприятий При Мочекаменной Болезни В Зависимости От Состава Камня. Медицинский вестник Башкортостана, 18(1 (103)), 24-28.